



Doç. Dr. Esra Nur Tiriya
anısına

ifwt

Institut für die Welt der Türken

VII. ULUSLARARASI TÜRKLERİN DÜNYASI SOSYAL BİLİMLER SEMPOZYUMU

INTERNATIONAL WORLD OF TURKS SYMPOSIUM OF SOCIAL SCIENCE

2-4 Haziran June 2023 | Prag-ÇEKYA
Prague-CZECHIA



BİLDİRİ KİTABI

EDİTÖR: DR. RAMAZAN ERYILMAZ

**VII. ULUSLARARASI TRKLERİN
DNYASI SOSYAL BİLİMLER
SEMPOZYUMU**

**VII. INTERNATIONAL WORLD OF
TURKS SYMPOSIUM OF SOCIAL
SCIENCES**

BİLDİRİ KİTABI

PROCEEDINGS BOOK

02-04 Haziran/June 2023 Prag-ÇEKYA

Editör

Dr. Ramazan ERYILMAZ

BİLDİRİLER

BUXORO AMİRLİĞİDA MADRASA QURDİRGAN AYOLLAR

WOMENS WHO BUILT MADRASA IN BUKHARA EMIRATE

Feruz Bobojonova

Dr., Özbekistan

Özet

Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Movarounnahrda, balki Markaziy Osiyo, musulmon sharqida ham mashhur edi. Buxoro madrasalarining islom olamidagi nufuzi juda yuqori bo'lib, ularda ta'lim olgan ulamolarning diniy masalalardagi so'zlari Misr va Hijozda o'qiganlarning so'zlaridan ko'ra mo'tabarroq hisoblangan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi 323-fondi Vaqf mulklari kolleksiyasi deb nomlanadi. Mazkur jamg'armalarda Buxoro amirligida madrasa qurdirgan ayollar faoliyati haqidagi qimmatli ma'lumotlar aniqlandi.

Buxoro tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mahalliy musulmon amaldorlarning ayollari xayr-ehsonlar bilan ham shug'ullangan. Tarixni o'rganish jarayonida oqila, zukko ayollarimizning bilimdon va faolligiga guvoh bo'lamiz. Ularning sa'y-harakati bilan qurilgan madrasa, xonaqoh va boshqa inshootlar Sharq ayolining aql-idroki, ijtimoiy-siyosiy faolligi namunasi sifatida hozirgacha saqlanib kelmoqda. Aql-idrokli, farosatli va bilimli ayollar doimo ulug'lanib kelishgan. Xususiy mulkka ega bo'lgan ayollar bevosita jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham ishtirok etish imkoniga ega bo'ladilar.

Abstract

This article is dedicated to the history of madrassas and schools built by women in the history of the Emirate of Bukhara. It is stated in detail that the main source of activity of the madrasah and school was the property of the waqf, a large part of the property of the waqf was land ownership (arable land), and women waqfed their backyards. During this period, issues such as the fact that schools and madrasas were permanently inhabited at the expense of private individuals and waqf property were covered on the basis of waqf letters.

Kirish

Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Movarounnahrda, balki Markaziy Osiyo, musulmon sharqida ham mashhur edi. Buxoro madrasalarining islom olamidagi nufuzi juda yuqori bo'lib, ularda ta'lim olgan ulamolarning diniy masalalardagi so'zlari Misr va Hijozda o'qiganlarning so'zlaridan ko'ra mo'tabarroq hisoblangan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi 323-fondi Vaqf mulklari kolleksiyasi deb nomlanadi. Mazkur jamg'armalarda Buxoro amirligida madrasa qurdirgan ayollar faoliyati haqidagi qimmatli ma'lumotlar aniqlandi.

Buxoro tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mahalliy musulmon amaldorlarning ayollari xayr-ehsonlar bilan ham shug'ullangan. Tarixni o'rganish jarayonida oqila, zukko ayollarimizning bilimdon va faolligiga guvoh bo'lamiz. Ularning sa'y-harakati bilan qurilgan madrasa, xonaqoh va boshqa inshootlar Sharq ayolining aql-idroki, ijtimoiy-siyosiy faolligi namunasi sifatida hozirgacha saqlanib kelmoqda. Aql-idrokli, farosatli va bilimli ayollar doimo ulug'lanib kelishgan. Xususiy mulkka ega bo'lgan ayollar bevosita jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham ishtirok etish imkoniga ega bo'ladilar.

Madrasa va maktab faoliyatining asosiy manbaini vaqf mulki tashkil etgan. Odatda vaqf mulkining katta qismini yer mulklari (ekin yerlari) tashkil etgan. Buxoro amirligida aksariyat hollarda ayollar o'z hovli-joylarini vaqf qilganlar. Bu davrda maktab va madrasalar doimiy ravishda xususiy shaxslar mablag'i va vaqf mulklari hisobiga yashab kelgan. (Наливкин В., 1989) Shariat qoidalariga muvofiq, maktab, madrasa, masjidlarga vaqf qilingan mulklardan binolarni ta'mirlashga, madrasa talabalari, maktab mudarrisi va boshqa xizmatchilarni ta'minlashga va davlat soliqlarini to'lashga sarflangan. (Алимов И, 2009, Б.57).

Ayrim an'anaviy maktablarda dars berish bilan shug'ullanuvchi domlarning ish haqi vaqfnomada belgilangan mablag'dan to'lab borilishi ko'pgina vaqfnomalarda uqtirilgan. (ЎзР МДА, 1010-фонд). Bunday ma'lumotlarni Mirmansurning qizi Nozikoy (ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 1116-уш, 1-варақ), vaqfnomasiidan bilib olishimiz mumkin. Masalan: vaqfnomada: “Vaqf mulkidan hosil bo'lgan pulni musulmon farzandlariga diniy ta'lim beradigan hamda har juma ertalab va kechqurun “Mulq”, “Taborak” surasini o'qib, o'shandan hosil bo'ladigan savobni vaqf egasiga va uning ota-onasiga, o'tgan barcha olim-ulamolarga bag'ishlagan kishi”ga berilishi yozib qo'yilgan. (ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 1116-уш, 1-варақ.)

Maktablar ko'p hollarda ayrim badavlat shaxslarning xayr-ehsonlari evaziga, ba'zan esa masjidlarga tushgan daromad evaziga qurilgan. (ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333-уш, 9-варақ.) Masalan, Mir Mansurning qizi Nozikoy yetti xonali uy va boloxonadan iborat bo'lgan hovlisini maktab o'quvchilari foydasiga diniy ta'lim olishlariga yordam sifatida vaqf qildirgan. (ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 1226-уш, 1-варақ) Maktablar, asosan, jamoatchilik, xayriya va vaqf mulki asosida moliyalashtirilgan, davlat tomonidan mablag'lashtirilmagan.

Buxorodagi madrasalarning ayrimlari ayollar tomonidan ham qurdirilgan. 1700 yilda qurilgan Bibi Xalifa madrasasining vaqf hujjatida shunday jumla mavjud: “Iffatpanoh, ismatdastgoh, zayn ul-mashvarat, ayollar sharaflisi, afifa, soliha, sojida, haramayn ul-sharifaynni haj qilishga muyassar bo'lgan Hoji Bibi Xalifa binti marhumi mag'furi g'ariq ur-rahmat va rizvon Mulla Muhammad Sa'id Buxoroda hazrat qutb ul-aqtob (mir Tahur devon) masjid va xonaqohi guzarida madrasa qurishga kirishdi”. (ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 55/18-уш, 1-варақ.) Madrasa tosh, pishiq g'isht va yog'ochdan qurilib, uning 30 ta hujrasi, 4 ta gumbazi, darsxona, ichki va tashqi hovlisi bor edi. Ayrim manbalarda aytilishicha, ushbu madrasada faqat qizlar o'qitilgan ekan. (ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 55/18-уш, 1-варақ.)

Boloyi Hovuz madrasasini ham ayol kishi qurdirgan. Ushbu madrasani Buxoro xoni Subhonqulixonning Podshohbibisi ismli xotini 1703-1704 yilda qurdirgan. Podshohbibining ikkinchi nomi Sitorayi Moh xonim bo'lgan. Madrasaning vaqf hujjatiga aynan “Sitorayi Mohi Xossa madrasasi vaqfi” deb yozilgan. Tarixdan ma'lumki, amir Said Olimxon ham 1911-1915 yillarda xuddi shunday nom bilan shaharning chetrog'ida saroy qurdirgan. Shu sababli Sitorayi Mohi Xossa deganda, amir Olimxon qurdirgan saroy ham anglashiladi.

Buxoro qal'asidan tashqarida, Jo'ybor mavzesining g'arbida joylashgan madrasani 1790 yilda Muhammadxon Elbarsxon qizi Oyshabibi qurdirgan. (ЎзР МДА, 323-фонд, 2-рўйхат, 113-уш, 4-варақ) Madrasaning ichi, hovlisi va hujralarining hammasi pishiq g'ishtdan bo'lgan. Bu madrasa Nafas qishlog'idagi eng mashhur madrasalardan biri hisoblangan. Oyshabibi Mudin qishlog'idagi to'rtburchakli, 150 tanob (bir tanob-3600 kv. ga ega) yerini ham madrasa xizmati uchun bergan. (ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 5-уш, 1-варақ)

Madrasa bir vaqtning o'zida talabalar uchun yotoqxona vazifasini o'tab, ularning ta'minoti ham madrasaga tegishli bo'lgan vaqf mulkining miqdoriga qarab belgilangan. Nafaqat ma'sul shaxslar madrasadagi moddiy ta'minot masalalarini e'tiborda tutgan. Ammo, madrasalarning moliyaviy-xo'jalik ta'minoti asosan vaqf mulkchiligiga asoslangan.

1417 yilda Buxoroda qurilgan Ulug'bek madrasa darvozasiga “Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir” degan kalima o'yib yozib qo'yildi. Qiz bolalar maktabxonalari otin ayollar uylarida yoki badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uylarida tashkil etilgan. Maktablarda o'g'il bolalarni o'qitgan kishi “domla” deb atalgan. Qizlarni o'qitgan ayollarni esa “otinoyi” yoki “otinbibi”

(Toshkentda) “bibixalifa” yoki “bibiotin” (Buxoroda), “eltibibi” (Xorazmda) deb atashgan. (*ЎзР МДА, 1010-фонд, 1-рўйхат, 66-иш, 13- варақ*). Shuni e'tiborga olish lozimki, hozirgi Qoraqalpog'iston hududidagi maktabxonalarda o'g'il va qiz bolalar birgalikda bir muallim tomonidan o'qitilavergan. (*Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 5-жилд, 2003, Б.421*).

Qizlar maktabida o'qitish o'g'il bolalar o'qiydigan maschitlar huzuridagi maktabxonadagi o'qitishdan bir muncha farq qilar edi. O'zining savodini qizlar maktabida chiqargan S.Ayniy ushbu maktabni quyidagicha ta'riflaydi: «Otinbibi o'zining butun vaqtini saboq beruvga sarf etar, har bir bolani navbat bilan o'z oldiga chaqirib dars berar va bu bilan bir kunlik o'qish o'tar edi. Otinbibining bir kunlik dars vaqti ertangi nonushtadan, to soat o'n ikkigacha davom etar, u bolalarni maschitdagi domladay ertadan kechgacha bir xonada qamab qo'yib zeriktirmas edi. Uning shogirdlari erta bilan nonushtani o'z uylarida yeganlaridan keyin maktabga kelardilar, saboq olish va olingan saboqni o'qish bilan shug'ullanar edilar». (*С.Айний, 1963, Б.142*).

)Yuqoridagilardan ma'lum bo'lmoqdakim, qizlar maktabida o'qitish jarayoni ertalabki nonushtadan (8.00) to soat 12 gacha, ya'ni tushlikkacha davom etgan. O'g'il bolalar maktabida esa bomdod namozidan keyin, ya'ni ertalabdan soat 17 gacha o'qish jarayoni davom etardi. Tushlik vaqtida o'g'il bolalar uylaridan nonushta qilib kelishsa, qizlar maktabida o'qiydiganlar tushlikni ham nonushtani ham o'z uylarida qilishgan.

Qiz bolalar uchun o'qishga borish 7 yoshdan boshlanib, uni tugallash 13 yoshda bo'lardi. (*Туркестанские ведомости. 1878, №16, Б.58*). Ayrim hollarda qizlar 10-11 yoshgacha o'qigan. Odatda qiz bolalarga uyda ta'lim berish tajribasi keng tarqalgan. Umuman olganda, ayollarning maktabda o'qishi qiyin kechgan, faqat boy xonadonlarning qizlarigina o'qib savodini chiqara olgan, qishloqlarda o'qigan qizlar juda kamchilikni tashkil etar edi.

Qizlar maktablarida mumtoz shoirlar ijodini o'rganishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ularda qizlar tarbiyasining o'ziga xos jihatlari, chunonchi, uy-ro'zg'or tutish, pazandalik, pokizalik, sharqona odob-axloq kabilarga o'rgatuvchi darsliklardan ham foydalanilgan. Bu o'rinda Faxriddin ibn Rizouddinning «Tarbiyali Xotun», Olimat ul-banotning «Muosharat odobi» kabi darsliklarining ahamiyati katta bo'lganligini ta'kidlash lozim. «Muosharat odobi» 1898 va 1899 yillarda Sankt Peterburgda ikki marta nashr etilgan. Risolada odob-axloq, ayollarning turmushdagi o'rni va oilaviy munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat haqida g'oyat ibratli maslahatlar beriladi. (*Олиमत ул-Банот, 1991, Б.4*).

Xulosa va tavsiylar

Xulosa qilib aytganda, Buxorodagi Bibi Xalifa madrasasi, Boloyi Hovuz madrasasi, Jo'ybor mavzesining g'arbida joylashgan madrasalarning ayollar tomonidan qurilishi mahalliy musulmon amaldorlarning ayollari xayr-ehsonlar bilan ham shug'ullanganligidan dalolat beradi. Buxoro tarxidagi ayollarimizning faolligi bugungi avlod vakillarini ularga munosib voris bo'lishga da'vat etadi, deb ishonamiz.

Adabiyotlar

1. АЛИМОВ И. (2009) Ўзбекистонда вақф мулкларининг тугатилиши (1917-1929 йиллар). – Тошкент: Фан. – Б 57.
2. АЙНИЙ С. (1963) Эски мактаб.-Тошкент: Бадий адабиёт. -Б.142
3. НАЛИВКИН В. (1898) Школа у туземцев Средней Азии // Туркестанские ведомости. – 8 августа.
4. ОЛИМАТ УЛ-БАНОТ. (1991) Муошарат одоби.-Тошкент:Мехнат. -Б.4.
5. Туркестанские ведомости. 1878, №16.-Б.58
6. ЎзР МДА, 1010-фонд, 1-рўйхат, 66-иш, 23-варақ.
7. ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 1116-иш, 1-варақ.

VII. Uluslararası Türklerin Dünyası Sosyal Bilimler Sempozyumu Bildirileri

8. ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 1116-иш, 1-варақ.
9. ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333-иш, 9-варақ.
10. ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 1226-иш, 1-варақ.
11. ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 55/18-иш, 1-варақ.
12. ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 55/18-иш, 1-варақ.
13. ЎзР МДА, 323-фонд, 2-рўйхат, 113-иш, 4-варақ.
14. зР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 1-варақ.
15. ЎзР МДА, 1010-фонд, 1-рўйхат, 66-иш, 13- варақ.
16. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 5-жилд.- Тошкент:Давлат илмий нашриёти,
2003. -Б. 421